

TIL O'RGANISH STRATEGIYALARI BO'YICHA DASTLABKI TANQIDLAR: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR TAHLILI

Umarova Nigora Amirjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Telefon: +99890 3180789 Email: nirnazarova2991@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21902875>

Annotatsiya. Til o'rganish strategiyalari (Language Learning Strategies) ikkinchi va chet tillarini o'rganish jarayonini tushuntirish va samaradorligini oshirish maqsadida keng o'rganilgan muhim yo'nalishlardan biridir. Biroq, 1980-yillarga kelib, ushbu sohada bir qator nazariy va amaliy muammolar mavjudligi aniqlangan. Ushbu tadqiqot ishida til o'rganish strategiyalari (keyingi o'rinlarda TO'S deb yuritiladi) bo'yicha dastlabki tanqidlar tahlil qilinadi hamda strategiyalarni aniqlash, tasniflash va o'qitish bilan bog'liq muammolar yoritiladi. Tadqiqotchilar strategiyalar tushunchasining noaniqligi, ichki psixologik jarayonlarni o'lchashdagi qiyinchiliklar, madaniy kontekstga moslashuv muammolarini ta'kidlab o'tganlar. Maqola TO'S nazariyasining rivojlanishidagi muhim tanqidiy bosqichni yoritadi hamda kelajakdagi tadqiqotlar uchun asosiy yo'nalishlarni ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Til o'rganish strategiyalari, til ta'limi, til o'rganish nazariyasi, o'quv strategiyalari, psixologik jarayon, empirik tadqiqot.

EARLY CRITICISM OF LANGUAGE LEARNING STRATEGIES: ANALYSIS OF THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS

Abstract. Language Learning Strategies represent one of the important areas widely studied in order to explain the process of learning second and foreign languages and to improve its effectiveness. However, by the 1980s, a number of theoretical and practical problems in this field had been identified. This research paper analyzes the early criticisms of Language Learning Strategies (hereinafter referred to as LLS) and highlights the problems related to the identification, classification, and teaching of these strategies. Researchers have emphasized the ambiguity of the concept of strategies, difficulties in measuring internal psychological processes, and challenges related to adaptation to different cultural contexts. This article sheds light on an important critical stage in the development of the theory of language learning strategies and outlines the main directions for future research.

Key words: Language Learning Strategies, language education, language learning theory, learning strategies, psychological processes, empirical research

РАННИЕ КРИТИЧЕСКИЕ ОЦЕНКИ СТРАТЕГИИ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА: АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И ПРАКТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

Аннотация. Стратегии изучения языка (Language Learning Strategies) предоставляют собой одно из важных направлений, широко изучаемых с целью объяснения процесса изучения второго и иностранного языков и повышения его эффективности. Однако к 1980-м годам было выявлено наличие ряд теоретических и практических проблем в данной области. В данной научной работе анализируются ранние критические взгляды на стратегии изучения языка (далее именуемые LLS) и освещаются проблемы, связанные с определением, классификаций и обучением данным стратегиям. Исследователи подчеркивали неопределенность понятия стратегий, трудности измерения внутренних психологических процессов, а также проблемы адаптации к различным культурным контекстам. Статья освещает важный критический этап в развитии теории стратегии изучения языка и определяет основные направления для будущих исследований.

Ключевые слова: стратегии изучения языка, языковые образование, теория изучения языка, учебные стратегии, психологические процессы, эмпирическое исследование.

Kirish. TO'S ikkinchi va xorijiy til o'rganish jarayonida talabalar tomonidan qo'llanadigan ongli yoki yarim ongli harakatlar va usullarni ifodalaydi. Ushbu yo'nalish 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlarida katta qiziqish uyg'otgan bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar muvaffaqiyatli til o'rganuvchilar qanday strategiyalardan foydalanishini aniqlashga harakat qilganlar. Biroq vaqt o'tishi bilan

TO'S nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq muammolar yuzaga chiqqan boshladi. 1980- yillarga kelib, bir qator olimlar ushbu sohada jiddiy nazariy va metodologik kamchiliklar mavjudligini aniqladilar. Ushbu tanqidlar TO'S tushunchasini qayta ko'rib chiqish, uning ilmiy asoslarini mustahkamlash va amaliy qo'llanilishini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. *A.Cohen* va *E.Macaro* tadqiqotida turli tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan TO'Sga oid dastlabki tanqidlar va ularga mos yechimlar jamlangan bo'lib, ular quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.[1.2007:B.17-20] (1-jadvalga qarang):

1-jadval. Til o'rganuvchi strategiyalariga oid dastlabki tanqidlar va yechimlar

Tanqid yo'nalishi	Asosiy tanqidlar	Tadqiqotchilar/Yillar	Kelgusidagi yechimlar/Tavsiyalar
Nazariy muammolar	- Ong jarayonlari yashirin; - Ichki va tashqi xatti-harakat orasidagi aloqaning kuchsizligi; - Strategiyalar mavhumligi.	H.Seliger (1983), R.Ellis (1986), E.Stevick (1990)	Strategiyalarni ongli jarayon deb hisoblash kerak (R.Oxford va A.Cohen, 1992); Strategiyalarni to'plamda baholash
Atamalar chalkashligi	- “strategiya”, “taktika”, “jarayon” kabi so'zlar bir-birini almashtirib ishlatilgan; Tasniflar o'zaro bi-biriga zid.	R.Ellis (1986), R.Oxford (1990), A.Wenden (1987)	“Strategiya” va “taktika”ni qat'iy ajratmaslik; - Foydasiz tasniflardan qochish.
Empirik dalil yetishmasligi	- Strategiyalar muvaffaqiyat olib kelishini isbotlovchi empirik dalillarning kamligi	J.Rees-Miller (1993), G.Porte (1988)	Strategiyalarni testlashga asoslangan o'qitish modelini yaratish (A.Chamot va J.Rubin, 1994)
Amaliy qiyinchiliklar	- O'qituvchi strategiyani bevosita kuzata olmaydi; - Strategiyani o'rgatish murakkab	J.Rees-Miller (1993)	- Faol strategiyalarni mustahkamlovchi o'qitish modelini yaratish; Talabaniing reflektiv tahlili
Kognitiv yetishmovchilik	Til o'rganuvchi strategiyalari o'quv nuqsoni bo'lganlar uchun mos emas; - Ular noto'g'ri baholanadi.	R.Sparks va L.Ganshow (1993)	- Muammolarning aniq sabablarini aniqlash; - Individual yondashish

Demak, TO'S bo'yicha dastlabki tanqidlarning asosiy qismi nazariy va tushunchaviy muammolar bilan bog'liq bo'lgan. Tadqiqotchilar strategiyalarni aniqlash va o'lchash jarayoni murakkab ekanini ta'kidladilar. *H.Seliger* fikriga ko'ra, TO'S ko'pincha ichki va ong osti jarayon bo'lib, ularni aniqlash yoki tasvirlash qiyin. *R.Ellis* TO'Sni tasniflash tizimi mukammal psixologik asosga ega emasligini tan oldi va uni vaqtinchalik yechim sifatida baholadi. U TO'S bilan bog'liq bir necha muammolarni ko'rsatdi. Birinchidan, strategiya taktika va jarayon kabi atamalar ko'pincha bir-biri bilan almashtirib ishlatilgan. Ikkinchidan, inson ongidagi jarayonlarni to'liq tushunish qiyinligi sababli strategiyalarni aniqlash murakkablashadi. *R.Ellis* bu holatni “ko'zni bog'lab xonada yashirin buyumni izlash”ga o'xshatgan. *E.Stevick* esa ushbu tanqidlarni yanada kengaytirib, TO'Sning hajm va abstraktsiya muammosini ko'rsatadi. Uning fikricha, ayrim strategiyalar juda umumiy yoki mavhum bo'lib, ularni aniq o'lchash qiyin. Bundan tashqari, tashqi xatti-harakatlar bilan ongda jarayonlar o'rtasida aniq bog'lanish mavjud emas. TO'S faqat talabaniing qilayotgan ishlarini emas, balki u o'ylayotgan deb hisoblangan jarayonlarni ham o'z ichiga oladi.

TO'Sning amaliy qo'llanishi ham tanqid ostiga olingan. *J.Rees-Miller* TO'S haqidagi xabardorlik til o'rganish muvaffaqiyatiga bevosita sabab bo'lishini ko'rsatadigan yetarli empirik dalillar mavjud emasligini ta'kidlaydi. U o'quv vaqtining katta qismini strategiyalarni o'rgatishga sarflash xavfli bo'lishi mumkinligini qayd etdi. *R.Sparks* va *L.Ganshow* strategiyalar tushunchasi juda keng va aniqlikdan yiroq ekanini aytib, ayniqsa o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalar uchun bu yondashuv har doim ham foydali emasligini ta'kidladilar. Ularning fikriga ko'ra, noaniq strategiyalar talabalarni noto'g'ri baholashga olib kelishi mumkin.

Tanqidlar avj olganiga qaramay, ayrim tadqiqotchilar ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini izlashga harakat qildilar. *R.Oksford* va *A.Cohen* TO'S ongli ravishda qo'llanilishi kerakligini ta'kidladilar. Ularning fikricha, bir nechta strategiyani birgalikda qo'llash o'rganish samaradorligini oshirishi mumkin.

Shuningdek, ular tadqiqotchilar nazariy muammolardan qochmasligi, balki ularni chuqur o‘rganib, ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishi zarurligini qayd etdilar.

Xulosa. TO‘S bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar til ta‘limi sohasida muhim o‘rin egallagan bo‘lsada, ushbu yo‘nalish bir qator nazariy va amaliy muammolar bilan yuzlashgan. Strategiya tushunchasining aniq ta‘rifi mavjud emasligi, ichki psixologik jarayonlarni o‘lchashdagi qiyinchiliklar, madaniy kontekstga moslashuv muammolari va empirik dalillarning yetishmasligi ushbu sohaning asosiy muammolari hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar ongli ravishda qo‘llash va ularni samarali kombinatsiyalash orqali til o‘rganish jarayonini yanada rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Kelajakdagi tadqiqotlar TO‘Sni aniqlash, tasniflash va ularni o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cohen, A.D. and Macaro, E. (2007) Language learner strategies: Thirty years of research and practice, Oxford University Press, 348p. p.p.17-20
2. Cohen, A.D. and Weaver S.J. (2005) Styles and strategies-based Instruction: A teachers’ guide, University of Minnesota, CARLA working paper series, 178p.
3. Grenfell, M.J. and Harris V. (2017) Language Learner Strategies: Contexts, Issues and Applications in Second Language Learning and Teaching, Bloomsbury Publishing Plc, 273p.
4. Griffiths, C. (2004) Language Learning Strategies: Theory and Research, Girne American University, <https://www.researchgate.net/publication/268413776>, 27p.
5. Harris, V., Grenfell, M. (2004) Language-learning strategies: A case for Cross-curricular collaboration, <https://www.researchgate.net/publication/27225073> p.120
6. Oxford, R.L. and Amerstorfer, C.M. (2018) Language Learning Strategies and Individual Learner Characteristics, Bloomsbury Publishing Plc, 314p.
7. Oxford R.L. (1990). Language learning strategies: What every teacher should know, Boston: Heinle and Heinle, 343p.
8. Wenden, A., Rubin, J. (1987) Learner strategies in language learning, Prentice-Hall International English Language Teaching, 181p.